

IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MA'NAVIIY-MADANIY JARAYONLARNING SHAXS SIYOSIY E'TIQODIGA TA'SIRI

Shernazarov Ravshan Avazovich
Navoiy davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi
Navoiy, O'zbekiston

INFLUENCE OF SOCIAL-POLITICAL AND SPIRITUAL-CULTURAL PROCESSES ON PERSONAL POLITICAL BELIEFS

Shernazarov Ravshan Avazovich
researcher at Navoi State Pedagogical Institute
Navoi, Uzbekistan



<https://orcid.org/0000-0003-2184-7852>

abduhakim-83@mail.ru

ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКИХ И ДУХОВНО-КУЛЬТУРНЫХ ПРОЦЕССОВ НА ЛИЧНЫЕ ПОЛИТИЧЕСКИЕ УБЕЖДЕНИЯ

Шерназаров Равшан Авазович
научный сотрудник Навоийского государственного
педагогического института
Навои, Узбекистан

Annotatsiya: Ushbu maqolada siyosiy e'tiqod tushunchasi, mohiyati, shakllanishi va tarkibiy qismlari falsafiy tahlil etilib, ularning siyosiy jarayonlarni shakllantirishdagi roli tadqiq etilgan. Shuningdek, maqolada siyosiy e'tiqodning shaxs yoki guruhning siyosiy masalalar, tizimlar va mafkuralarga bo'lgan nuqtai nazariga ta'sir etishi o'rganilgan. Siyosiy e'tiqodning jamiyat hayotidagi siyosiy jarayonlar haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdagi roli va insonlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga ta'siri tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: siyosiy e'tiqod, davlat, jamiyat, demokratiya, gumanizatsiya, erkinlik, mafkura, madaniyat, ma'naviyat, milliylik.

Annotation: In this article, the concept of political belief, its essence, formation, and components are analyzed philosophically, and its role in shaping political processes is investigated. The impact of political beliefs on an individual or group's perspectives on political issues, systems, and ideologies is examined. Additionally, the role of political beliefs in shaping perceptions of political processes in society and their influence on people's participation in these processes are analyzed.

Keywords: political belief, state, society, democracy, humanization, freedom, ideology, culture, spirituality, nationality.

Аннотация: В данной статье проводится философский анализ понятия, сущности, формирования и компонентов политических убеждений, а также исследуется их роль в формировании политических процессов. Кроме того, рассматривается влияние политических убеждений на взгляды человека или группы на политические вопросы, системы и идеологии. Также проанализирована роль политических убеждений в формировании представлений о политических процессах в обществе и их влияние на участие людей в этих процессах.

Ключевые слова: политическая вера, государство, общество, демократия, гуманизация, свобода, идеология, культура, духовность, национальность.

Kirish

Mustaqillikni qo'lg'a kiritganimizdan so'ng jamiyatda kechgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar shaxs siyosiy e'tiqodi mazmuni va ahamiyatini butkul o'zgartirdi. Xususan, Sovet hukmronligi davomida u kommunizm g'oyalari asoslangan siyosiy bilimlar negizida shakllangan bo'lsa, mustaqillik yillaridagi voqelik unga umuminsoniy va demokratik xarakter baxsh etdi. Mazkur yuksalish jarayoni tahlili shaxs siyosiy e'tiqodidagi o'zgarishlar yo'nalishlarini aniqlash, uning gumanizatsiyasining asoslarini belgilab olish imkonini yaratdi.

SSSR siyosiy tizimi qator o'ziga xosliklarga ega edi. Bu tizim, avvalo, kommunistik partiyaning mutlaq monopoliyasiga asoslangan edi. Siyosiy tizimning boshqa tarkibiy qismlari aynan ana shu monopolist atrofida birlashtirilgan edi. Shuningdek, ularning faoliyati yo'nalishlari ham mazkur partiya g'oyalari bilan chambarchas holda belgilanardi va boshqarilardi. Sovet siyosiy voqeligi proletariat diktaturasi tamoyiliga bo'ysundirilgandi, ya'ni barcha ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy ishlar yuzasidan qarorlar faqatgina ishchilar sinfi manfaatlaridan kelib chiqqan holda qabul qilinardi. Bunga qo'shimcha qilgan holda aytish mumkinki, jamiyat hayoti qat'iy mafkuraviy nazorat ostida edi, uning barcha sohalariga kirib borgan markscha-lenincha mafkuraga zid bo'lgan siyosiy faoliyat hamda qarashlarga mutlaqo yo'l qo'yilmasdi [1].

O'zbekistonda 1980-yillarning oxirlarida milliy mustaqillikka intilish kommunistik mafkuraga asoslangan siyosiy e'tiqodlarni zaiflashtirdi. Bu davrda jamiyatning turli sohalarida inqiroz alomatlari aniqroq ko'rina boshladi. Iqtisodiy ishlab chiqarish sur'ati keskin sekinlashdi, bu esa turli mahsulotlar va xizmatlar tanqisligiga hamda ko'plab korxonalar va tashkilotlarda mehnat sharoitlarining yomonlashishiga olib keldi. Natijada, jamiyat a'zolarining turmush darajasi pasaydi va ijtimoiy tengsizlik keskinlashdi. Mamlakat ziyolilari, jumladan olimlar, olim-u fuzalolar, davlat va siyosat arboblari, shoir va yozuvchilar, inqiroz sabablarini faol ravishda o'rganishga kirishdilar. Ularning asarlari, maqolalari, nutqlari va filmlari tobora ko'proq inqirozning asosiy sabablarini kommunistik mafkuraga asoslangan siyosiy tizim va markazlashtirilgan boshqaruv bilan bog'lay

boshladi. Albatta, bu jarayonlar kishilarning siyosiy qarashlari va qadriyatlariga chuqur ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa mustaqillik arafasida shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning boyishi va xarakterining o'zgarishi uchun ilk tamal toshi qo'yildi.

Tahlil va natijalar

Mustaqillik yillarida shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati asosiy o'zgarishlarga uchradi. Bu davr jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy-madaniy sohalarida o'zgarishlar sodir bo'ldi, bu esa shaxslarning siyosiy his-tuyg'ulari va tajribalarini, shuningdek, ularning siyosiy bilim va ma'lumotlarining ko'lami va mazmunini qayta shakllantirdi. Ushbu o'zgarishlar oxir-oqibatda shaxsiy siyosiy tushunchani o'zgartirdi va yangi bilimlarga asoslangan siyosiy e'tiqodlarning mutlaqo yangi xarakterini yaratdi. Bugungi kunda shaxsiy siyosiy e'tiqodlar milliy va umumbashariy qadriyatlarga sadoqat, demokratik tamoyillarga rioya qilish, mafkuraviy cheklovlardan ozodlik va siyosiy erkinlikka intilish bilan ajralib turadi. Shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati asosiy o'zgarishlarini tushunish uchun, ularni keltirib chiqargan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlarni o'rganishimiz kerak.

Birinchidan, shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati mamlakatda demokratik jamiyatning shakllanishi bilan belgilandi. So'nggi yillarda demokratik jamiyatni barpo etishga bo'lgan harakat yanada kuchaygan. Xususan, avval "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" [2] doirasida, so'ngra esa "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" [3] doirasida xalqni hokimiyat manbai sifatida e'tirof etish, huquqiy davlatni ravnaq toptirish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash, qonun ustuvorligini ta'minlash, siyosiy plyuralizmni rivojlantirish, saylov imkoniyatlarini kengaytirish, hokimiyat taqsimotini mustahkamlash, oshkoralikni oshirish, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarini rivojlantirish kabi demokratiya norma va tamoyillarini yanada kengroq tatbiq etishga intilindi.

Demokratik jamiyatning rivojlanishi shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati ustida sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, siyosiy qarashlarni ifodalash erkinligi kafolatlanganligi fuqarolarning siyosiy ongini oshirdi va ularning faoliyatini

kuchaytirdi. Siyosiy hayotda ishtirok etish, turli masalalar bo'yicha fikr bildirish, saylovlarda qatnashish va qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok etish imkoniyatlari kengayganligi shaxsiy siyosiy e'tiqodlarga demokratik va umumbashariy xususiyatni kiritdi. Ushbu kuzatishlar demokratik jamiyatni tashkil etish siyosiy e'tiqodlarda muhim ijobiy o'zgarishlarga olib kelishini ta'kidlaydi. Aksincha, demokratik normalardan va tamoyillardan chetga chiqish bu e'tiqodlarning tabiati bilan salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ikkinchidan, shaxs siyosiy e'tiqodi mazmuni va xarakteriga mamlakat siyosiy liderlari faoliyati ta'sir ko'rsatdi. Bugungi kunda demokratik jamiyat barpo etish maqsadiga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan muvaffaqiyatli olib borilmoqda. Davlat rahbarining bu boradagi sa'y-harakatlari natijasi, uning rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar O'zbekistonning, hatto butun Markaziy Osiyoning qiyofasini o'zgartirayotgani nafaqat mamlakat ziyolilari va jamoatchilik vakillari, balki xalqaro ekspertlar tomonidan ham e'tirof etilmoqda. Bu faoliyat natijasida shaxs siyosiy e'tiqodi milliylik, vatanparvarlik g'oyalari, yurt va millat manfaatlarini bilan yo'g'rildi.

Uchinchidan, shaxs siyosiy e'tiqodi mazmuni va xarakteriga mamlakatda yangi siyosiy tizimning vujudga kelishi ta'sir ko'rsatdi. O'ttiz yil mobaynida mamlakatda milliy xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan yangi siyosiy tizim qaror topdi. Bugungi kunda "O'zbekiston - boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir" [4]. Vujudga kelgan yangi siyosiy tizim jamiyat a'zolari siyosiy e'tiqodiga salmoqli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, tenglik, adolat va inson huquqlarining ustunligi kabi demokratik normalar va qadriyatlar odamlarning fuqarolik mas'uliyati bo'yicha siyosiy ongini kengaytirdi.

To'rtinchidan, shaxs siyosiy e'tiqodi mazmuni va xarakteriga ta'lim tizimidagi o'zgarishlar ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik yillarida mamlakatdagi ta'lim tizimi tub o'zgarishlarni boshidan kechirdi. Xususan, bunga "Ta'lim to'g'risidagi" Qonun hamda "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ni yorqin misol sifatida keltirishimiz mumkin. Yuqorida qayd etilganlar asosida

mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy imkoniyatlarini asrab qolish asosida ushbu tizimda islohot o'tkazish va tizimni rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-uslubiy, moliyaviy va ma'naviy jihatdan shart-sharoitlar yaratildi. Tub islohotlar natijasida, turli bo'g'inlari o'zaro uyg'un bo'lgan, zamonaviy kadrlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladigan ta'lim tizimini shakllantirish masalasi diqqat markazida bo'ldi. Bu borada davlatimiz rahbari quyidagicha fikr bildirganlar: "Biz O'zbekistonni rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlar, ilm-ma'rifat va innovatsiya bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik" [5]. Ta'lim tizimidagi pozitiv o'zgarishlar shaxs siyosiy e'tiqodi shakllanishi jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Beshinchidan, madaniy va ma'naviy sohalaridagi o'zgarishlar shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati ustida ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik milliy identitetning kuchli o'sishini ta'minladi, bu esa Sovet davrida to'qilgan milliy til va adabiyotning qayta tiklanishi va gullab-yashnashiga olib keldi.

Ularda o'zbek xalqining asl va azaliy orzu-umidlari, uning taqdiridagi evrilishlar yorqin bayon etib berildi. Bu o'rinda Nurali Qobilning "Unutilgan sohillar", Murod Muhammad Do'stning "Lolazor", Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar" kabi romanlarini eslash kifoya. Milliy madaniyat va ma'naviyat sohasida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar shaxs siyosiy e'tiqodi mazmunini butkul o'zgartirdi. Madaniy va ma'naviy o'zgarishlar sharofati bilan kishilar siyosiy e'tiqodi kommunistik e'tiqod iskanjasidan xalos bo'ldi. Chunki ma'naviy-madaniy transformatsiya kishilar siyosiy e'tiqodi asosini tashkil qilgan qadriyatlar tizimini o'zgartirdi: avvallari e'tiqod mazmunini tashkil etgan kommunistik g'oyalar, qadriyatlar va an'analar o'rnini milliylik asoslangan qadriyat va an'analar egalladi. Bu almashinuvni, ta'bir joiz bo'lsa, shaxs siyosiy e'tiqodida sodir bo'lgan inqilobiy o'zgarish deya atash mumkin.

Oltinchidan, milliy mustaqillik g'oyasi va ideologiyasining rivojlanishi shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati ustida ta'sir ko'rsatdi. Bu g'oya jamiyat a'zolarining siyosiy e'tiqodlarini milliy manfaatlar va qadriyatlar bilan moslashtirdi. Natijada, odamlar ijtimoiy va siyosiy jarayonlarni bu manfaatlar va qadriyatlar orqali talqin qila boshladilar. Ushbu kuzatishlar shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning shakllanishi haqidagi muhim jihatni ta'kidlaydi: milliy mustaqillik g'oyasi va ideologiyasining shakllanishi shaxsiy e'tiqodlarni milliy manfaatlar va qadriyatlar bilan moslashtiradi. Aksincha, milliy g'oyalar va ideologiyalarga mos kelmaslik shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning boshqa nuqtai nazarlar tomonidan ta'sirlanishiga olib kelishi mumkin.

Yettinchidan, O'zbekistonning global hamjamiyatning teng huquqli a'zosi sifatidagi pozitsiyasi shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning mazmuni va tabiati ustida ta'sir ko'rsatdi. Bu, mamlakatning turli xalqaro tashkilotlarda ishtirok etishi orqali ko'rinadi, bu esa uning global hamjamiyatga integratsiyasini aks ettiradi. Bugungi kunda O'zbekiston Birlashgan Millatlar tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha tashkilot, Qayta tiklash va taraqqiyot Yevropa banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Jahon Bojxona tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti kabi qirqdan ortiq xalqaro tashkilotlar faoliyatida muntazam ishtirok etmoqda. Ahamiyatli tomoni shundaki, O'zbekistonning jahon hamjamiyati a'zosiga aylanishi mamlakatning o'zga yurtlar bilan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy aloqalarini intensivlashtirdi.

Xulosa va takliflar

O'zbekistonda shaxsiy siyosiy e'tiqodlar turli ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlar

tufayli doimiy ravishda rivojlanmoqda. Ushbu o'zgarishlarni o'rganish shaxsiy siyosiy e'tiqodlarning shakllanishining asosiy jihatlarini aniqlashda muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-madaniy jarayonlarning shaxsiy siyosiy e'tiqodlarga ta'siri ularning rivojlanishi demokratik jamiyatning taraqqiyoti, siyosiy liderlarning harakatlari, siyosiy tizimning evolyutsiyasi, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, madaniyat va ma'naviyatdagi innovatsiyalar, ommaviy axborot vositalaridagi o'zgarishlar, milliy mustaqillik g'oyasi va ideologiyasining shakllanishi, propaganda tizimining rivojlanishi va mamlakatning global hamjamiyatga integratsiyasi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Беккер В.Я. Эволюция системы политической власти в СССР // Вестник Хакасского государственного университета, 2017, №22. -13-19 с.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni // lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni // lex.uz
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2021. –B.4.
5. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. J. 4.- T.: O'zbekiston, 2020. -B.10.

